Mahalliy byudjetlar xarajatlari ijrosining samaradorligini oshirish masalalari (Jizzax viloyati misolida).....	1286
Mamatqulov Omonulla Mamayusupov	
Ключевые факторы успеха в мотивации и управлении проектными командами.....	1294
Мансурова Севара Мансуровна	
Mehmonxona biznesida CRM tizim xizmatlarini loyihalash	1297
Ishanxodjayeva Dilfuza Erkinovna	



“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJDA MARKETING XIZMATINI TASHKILLASHTIRISH VA UNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO’LLARI

Musyeva Shoira Azimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Marketing kafedrasi professori



Annotatsiya: Mazkur maqolada ishlab chiqarish korxonasida marketing konsepsiyanining mazmun-mohiyati va zamonaviy shakllarini tadqiq qilish, mebel ishlab chiqarish sohasining bugungi holati va marketing xizmatining faoliyatini tahlil qilish, marketing faoliyatini tahlil qilish, uning alohida jihatlarini oshirish, marketing xizmatlarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: Korxona, konsepsiya, xizmat, faoliyat, tahlil, bozor, tovar, strategiya.

Abstract: In this article, the essence and modern forms of the marketing concept in the production enterprise are researched, the current state of the furniture production industry and the activity of the marketing service are analyzed, the marketing activity is analyzed, its special aspects are revealed, and proposals are made for the formation of marketing services. output is considered.

Key words: Enterprise, concept, service, activity, analysis, market, product, strategy.

Аннотация: В данной статье исследуются сущность и современные формы концепции маркетинга на производственном предприятии, анализируется современное состояние мебельной отрасли и деятельность службы маркетинга, анализируется маркетинговая деятельность, рассматриваются ее особенности. Выявлены и внесены предложения по формированию маркетинговой службы.

Ключевые слова: Предприятие, концепция, услуга, деятельность, анализ, рынок, продукт, стратегия.

KIRISH

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasining milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash uchinchi ustuvor yo'naliishida "... tadbirkorlik faoliyatini tashkil qilish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning yalpi ichki mahsulotdagi ulushuni 80 foizga va eksportdagि ulushuni 60 foizga yetkazish. Hududlarda tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, ishsizlik va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha mavjud tuzilmalar faoliyatini takomillashtirish"¹ kabi ustuvor vazifalar ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish kafolatlaridan biri hisoblanadi.

Xususiy tadbirkorlik mamlakatimiz bozorini tovarlar bilan to'yintirish bilan birgalikda yangi ish o'rirlarni yaratishda, qo'shimcha daromad olishda va xalq farovonligini oshirishda ham katta hissa qo'shib kelmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek "Agar xalq boy bo'lsa, davlat ham boy va kuchli bo'ladi"².

Tadbirkorlikni rivojlantirish va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmonlari va qarorlari bag'ishlangan. Shular qatorida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagи "Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va himoya qilish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5718-sون Farmonini kiritish mumkin. Ushbu Farmonning ahamiyatli jihat shundaki, aholini tadbirkorlik faoliyatiga kengroq va faol jalb etishga to'sqinlik qiluvchi, birinchi navbatda davlat organlarining tadbirkorlar bilan muloqot qilishning amaliy va shaffof tizimi mavjud emasligi bilan bog'liq bo'lgan bir qancha salbiy omillar saqlanayotganligiga urg'u berilgan va bu holatni bartaraf qilishning ta'sirchan mexanizmi belgilangan.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sон Farmoni.

2 Sh. Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. – Toshkent.: "O'zbekiston". – 2017.– 102 b.



MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI

Xorijiy tajribalarga tayanib shuni ta'kidlash lozimki, marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo'llash bo'yicha kuplab iqtisodchi olimlar shug'ullanib kelgan. Ular qatoriga F. Kotler, M. Porter, D. Evans, I. Ansoff, M. Berman, M. Golubkov, P. Samuelson, D. Marshall kabi taniqli olimlarni kiritishimiz mumkin.

Mamlakatimizda qator yillar davomida marketing sohasida olib borilgan izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda marketing nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan olimlarni ham e'tirof etish lozim. Bularga M. Muxammedov, M. Pardayev, R. Ibragimov, Y. Abdullayev, A. Saliyev, M. Sharifxo'jayev, B. Xodiyev, D. Raximova, R. Boltaboyev, D. Ergashxodjayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil, tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan

TAHLIL VA NATIJALAR

Mebel ishlab chiqarish korxonalarida marketing xizmatini rivojlantirish konsepsiyasini joriy qilishni ilmiy-uslubiy tomondan asoslab berish yo'llarini belgilashdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun ilmiy maqolada quyidagi vazifalar belgilab olindi hamda bajarildi:

- Marketing konsepsiyaning mazmun-mohiyati va zamonaviy shakllarini tadqiq qilish;
- Marketing xizmatlarining mazmuni, ularini tashkil qilish nazariysi, iqtisodiyotdagi o'rni hamda xususiyatlarini tadqiq qilish;
- Mebel ishlab chiqarish sohasining bugungi holati va marketing xizmatining faoliyatini tahlil qilish;
- "HAVAS COMFORT MEBEL" mas'uliyati cheklangan jamiyatining marketing faoliyatini tahlil qilish, uning alohida jihatlarini ochib berish;
- Mebel ishlab chiqarish sohasida marketing xizmatining yangicha yondashuvlarinini taklif qilish;
- Mamlakatimiz va xorijiy kompaniyalar tajribasidan kelib chiqqan holda mebel sanoatida hududiy marketing xizmatlarini shakllantirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Shu bilan birgalikda nazariy ishlanmalarni amliyotga tatbiq qilish va korxonalarda qo'llash bo'yicha uslubiy ishlar etarli darajada emasligini aytib o'tish lozim. Ayniqsa, mebel ishlab chiqarish sanoat korxonalarida marketing munosabatlariiga oid nazariy tavsiyalarni amalda qo'llash uchun har bir sohadan o'z tajribasi va xususiyatidan kelib chiqishi, unda tegishli ilmiy izlanishlar olib borilishi va nazariyani joriy qilish uchun tavsiyalar hamda tizimlar ishlab chiqilishini talab qiladi. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ushbu sohani rivojdantirish 22-maqсад, ya'ni Milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash va yalpi ichki mahsulotda sanoat ulushini oshirishga qaratilgan sanoat siyosatini davom ettirib, sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini 1,4 baravarga oshirish kabi maqsadda quyidagicha aks ettirilgan: "Mebel" mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 2,8 baravarga ko'paytirish³.

"HAVAS COMFORT MEBEL" mas'uliyati cheklangan jamiyatining tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, u ko'plab tadbirkorlik subyektlari kabi o'z faoliyatini kichik duradgorlik sexdan boshlagan. 1996-yildan bugungi kungacha u yirik mebel ishlab chiqarish korxonagacha o'sib keldi. 2003-yilda ushbu nom bilan mas'uliyat cheklangan jamiyatga aylanitirildi, 2006-yilda esa aholiga, korxona va tashkilotlar hamda muassasalar uchun keng ko'lamda turli xil mebellar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan.

1-jadval: "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsining 2019-2022-yillarda ishlab chiqarish ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkich nomi	Yillar bo'yicha miqdori			
		2019	2020	2021	2022
1	Ishlab chiqarish hajmi, mln.so'm	8745,7	9443,6	10402,1	11688,5
2	Ishlab chiqarishning yillik o'sish sur'atlari, %	100	107,98	110,15	111,4
3	2018-yilga nisbatan o'zgarishi, %	100	107,98	118,93	132,5

Ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsi doimiy ravishda ishlab chiqarish hajmlarini oshirib kelmoqda. 2022-yilga kelib 11 mlrd. 588 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan, bu esa 2019-yilga nisbatan 1,3 marotaba ko'pdir. Ishlab chiqarish hajmlarining o'zgarishini quyidagi diagrammalarda yaqqol kuzatishimiz mumkin.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot Strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni.



"HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJida ishlab chiqariladigan mahsulotlarning assortimenti bo'yicha ma'lumotlar quyidagi jadvalda keltirilgan (2-jadval).

2-jadval: 2019-2022-yillarda "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsi mahsulotlarining assortimenti, mln. so'm

№	Mebellarning turi	Yillik ishlab chiqarish, mln.so'm				Yillik o'sishi, %		
		2019	2020	2021	2022	2020	2021	2022
1	Oshxona mebellari	1542,7	4089,4	2159,5	3387,3	265,1	52,8	156,6
2	Yumshoq mebel	4693,8	3694,5	5570,3	4893,9	78,7	150,8	87,8
3	Ofis uchun mebel	18,4	12,3	232,0	486,2	66,9	1888,9	209,6
4	Yotoq uchun mebel	797,6	391,1	183,1	404,4	49,0	46,8	220,9
5	Yog'ochli stol va stullar	417,2	11,3	151,8	155,5	2,7	1339,8	102,3
6	Jurnal stollari	593,0	272,1	536,7	752,7	45,9	197,3	140,2
7	Matras	683,0	975,8	1568,6	1608,3	142,9	160,7	102,5
	Jami	8745,7	9443,6	10402,1	11688,5	107,98	110,15	111,4

Jadvaldagi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, assortimentning asosiy pozitsiyalari bo'yicha "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJida ishlab chiqarishning o'sishi kuzatilmoxda. Faqat yotoq uchun mebellar hamda matraslarni ishlab chiqarishda pasayishni ko'rishimiz mumkin. Bunda yotoq mebellari bo'yicha Samarqand mebel bozorida raqobatchilarining harakatlarini sabab sifatida ko'rsatish mumkin. Shu bilan birgalikda mebel ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi natijasida matras ishlab chiqarish bilan boshqa hamkor korxonalarining faol xizmat ko'rsatishini ham alohida ta'kidlash lozim. 2019 yilda "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsi faoliyatida oshxona mebellari va yog'och stol-stullar ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlarini ham ko'rishimiz mumkin.

Shu bilan birgalikda alohida assortiment pozitsiyalari bo'yicha xulosa qilish uchun assortiment tarkibining o'zgarishini ham tahlil qilish lozim bo'ladi. Bunda mahsulot turlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushini o'rganib chiqamiz.

3-jadval: 2019-2022-yillarda "HAVAS COMFORT MEBEL" MChJsi mahsulotlarining assortimentining tarkibi, %

№	Mebellarning turi	2019	2020	2021	2022
1	Oshxona mebellari	17,64	43,29	20,76	28,98
2	Yumshoq mebel	53,67	39,11	53,55	41,87
3	Ofis uchun mebel	0,21	0,13	2,23	4,16
4	Boshqalar	9,12	4,14	1,76	3,46
5	Yog'ochli stol va stullar	4,77	0,12	1,46	1,33
6	Jurnal stollari	6,78	2,88	5,16	6,44
7	Matras	7,81	10,33	15,08	13,76
	Jami	100	100	100	100

Jadvaldagi va rasmlardagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, 2019-yilda assortimentning asosiy qismini uch turdag'i mahsulot – yumshoq mebel (24,24 %), ofis uchun mebel (32,32 %) va yotoq uchun mebellar (28,28 %) joy olgan. Eng kichik o'rinni oshxona mebellari egallagan (0,61%). 2021-yilda assortiment tarkibidagi katta o'zgarishlarni ko'ramiz. yetakchi o'rinnlarda ofis uchun mebellar (29,63%) va yumshoq mebellar (24,69 %) qolgan. Yotoq uchun mebellar hissasi keskin tushgan va 12,35% ni tashkil qilgan. Oshxona mebellarini ishlab chiqarishning hissasi 0,61 %dan 9,88 % gacha ko'tarilgan. Xuddi shunday yog'och stol va stullarni ishlab chiqarish 8,08 % dan 19,75 % gacha ko'tarilgan. Ishlab chiqarilaetgan mahsulotlar assortimentda kichik o'rini egallagan jurnal stollari va matraslarning ulushi yanada pasaygan va 2022-yilga kelib tegishli ravishda 2,47 % ni va 1,23 % ni tashkil qilgan.




Bundan xulosa qilish mumkinki, o'tgan uch yil ichida mebel bozorining konyunkturasida katta o'zgarishlar yuz bergan hamda "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsining bozordagi o'rni ham o'zgarmoqda. Bu esa o'z navbatda korxonaning marketing faoliyatini rivojlantirishni talab qiladi.

"HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJsi marketing faoliyati viloyatdagi barcha mebelsozlik korxonasiga o'xshab ketadi. Bunda bozorni o'rganish, tovar siyosatini tashkil qilish, narxlashtirish va sotuvni rag'batlanitirish sxemalari korxonaning o'z tashabbusiga va imkoniyatlariga bog'lanadi. Buni bizlар quyilagi jadvalning ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkin.

4-jadval: 2022-yilda "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJda sotish tarmog'ining tahlili

No	Tovar sotish nuqtalarining nomi	Sotish hajmi, dona	Sotish hajmi, mln. so'm
1	Magazin Navobod dier	2339	3101,0
2	Magazin Karshi diler	324	679,3
3	Magazin Buxoro diler	46	103,0
4	Magazin Toshkent dier	128	377,1
5	Magazin Farg'ona diler	11	94,8
6	ООО "Хавас Комфорд Мебель"	108	76,1
7	Sam-Karpo Dizayn diler	2328	3260,3
8	F-2 buyurtmalar	5836	1688,7
9	F-3 buyurtmalar	129	29,9
10	Jismoniy shaxslar	201	640,8
11	Yuridik shaxslar	2740	1644,7
	Jami	14190	11695,8




- Магазин Навободдиер
- Магазин Карши дилер
- Магазин Бухоро дилер
- Магазин Ташкент дилер
- Магазин Фарғона дилер
- ООО "Хавас Комфорд Мебель"
- Сам-Карпо Дизайн дилер
- Ф-2 буюртмалар
- Ф-3 буюртмалар
- Жисмоний шахслар
- Юридик шахслар

1-rasm: 2022-yilda "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJda tovar tarqatish tarmog'ining umumiy tuzilishi

5-jadval: 2022-yilda "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJda sotish hajmiining tarkibi

No	Tovar sotish nuqtalarining nomi	Sotish hajmi, dona	Sotish hajmi, mln. so'm
1	Dilerlar orqali mebel mahsulotlarni sotish	5284	7691,6
2	Mebel uchun ehtiyoj qismlari	5965	1718,7
3	Jismoniy shaxslar	201	640,8
4	Yuridik shaxslar	2740	1644,7
	Jami	14190	11695,8



2-rasm: 2022-yilda “HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJda kanallar bo'yicha sotish hajmiining tarkibi

Tadqiqot natijalariga ko'ra, mebel mahsulotlari marketingini amalga oshirishda ba'zi milliy xususiyatlari-mizni o'rganishga to'g'ri keldi. Ya'ni marketingni qo'llash imkoniyati va samaradorligi sezilarli darajada bozor turi, ishlab chiqarayotgan va sotilayotgan mahsulotlar, bozordagi raqobat kurashi miqyosiga bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Jumladan, marketing konsepsiyasini qo'llashda universal, standart, bir xillashtirilgan tavsiyalar mayjud emasligi muhim o'rinn tutishi, amaliy marketingda hamma narsa tashqi va ichki omillarga, iste'molchilar xususiyatlariga bog'liqligi bilan sezilarli darajada ajralib turadi.

O'zbekistonda 5–6 yil avval marketing konsepsiyasini qo'llashda “yalpi” yondashuv ustunlik qilgan bo'lsa, ayni paytda differensiyali yondashuvdan keng foydalilmoqda. Ishlab chiqarilayotgan mebel mahsulotlarini tarkib turlariga ko'ra tahlil qiladigan bo'lsak, 58 foizi maishiy mebelga, 39 foizi tashkilotlar mebeliga va uch foizi boshqa mebellarga to'g'ri keladi. Bu borada salmoqli ulush ofis mebellari va o'quv muassasalari, savdo do'konlari, shifoxona, restoran, do'konlar, omborxonasi, sartaroshxona kabilar uchun maxsus mebellarni tashkil etadi.

Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibining hududlar kesimi tahlili shuni ko'rsatdiki, 2021-yilda ishlab chiqarilgan mebelning asosiy qismi Samarqand shahri va viloyatiga sotilgan. Viloyatlarning sotishdagi ulushi quyidagicha bo'lgan: Toshkent shahriga - 377,1 mln. so'm, Farg'ona viloyatiga - 94,8 mln. so'm, Qarshi shahriga 679,3 mln. so'm, Buxoro shahriga - 103,0 mln. so'm.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, har qanday tarmoqning barqaror rivojlanishi faqat xarid talabiga ega bo'lgan tovarlarni ishlab chiqarish va sotish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Bu esa, o'z navbatida, tarmoq korxonalarini marketing faoliyati samarali tashkil etilishi, mebel bozori muntazam o'rganishi, iste'molchilar xohish-istiklari inobatga olinishi, xarid jarayoni omillari batafsil tahlil qilib borilishini taqozo etadi. Texnologik o'zgarish, ijtimoiy media roli ortishi, demografik o'zgarishlar va ayollar xarid qobiliyati oshishi mebel ishlab chiqaruvchilar va chakana sotuvchilarning marketing ishlari hisobga olinishi kerak bo'lgan asosiy jihatlardir. Biz, mamlakatimiz mebel mahsulotlari iste'molchilari xohish-istagini o'rganishda tarix, madaniyat, urf-fodat, an'analar va mebel mahsulotlarining xususiyatidan kelib chiqib, ularni segmentlashni maqsadga muvofiq, deb topdik.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJning ochilishi va faoliyat ko'rsatishi “GULOBOD MEBEL” MCHJ bilan chambarchas bog'liqdir. Avvalo, O'rganilaetgan obyektning va “GULOBOD MEBEL” MCHJsining ta'sis-chilari ham, joylashishi ham udarning o'zaro bog'liqligini ko'rsatadi. “HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJning paydo bo'lishi mebel bozorining keng segmentlashishi va undagi raqobatning murakakablashishi bilan bog'liq. Amaliyot shuni ko'rsatdiki, keng assortiment mahsulot chiqarish hamma vaqt ham ijodiy natija bermaydi. Texnologiyalarning farqlanishi ishlab chiqarish xarakatlarning keskin oshib ketishiga olib keladi.

Mebel ishlab chiqarishdagi ixtisoslashuvining asosiy sababi – bu mebel mahsulotlari bozorida brendning vatoval siyosatining katta o'rinn egallashidir. Xaridorlar mebel mahsulotlarining ma'lum turini alohida brend bilan bog'laydilar, shu sababli maqsadli segmentni tanlash va uni saqlab qolish uchun universallikdan voz kechish lozim bo'ladi.

“HAVAS COMFORT MEBEL” MCHJsi faoliyatini kuzatadigan bo'lsak, tashkil qilingandan boshlab bugungi kungacha yumshoq mebel, oshxona mebeli va matraslar assortimentning asosiy qismini egallaydilar. Tahliliar shuni ko'rsatdiki, yangi zamonaviy “Lyuks” va “Eksklyuziv” toifadagi mebellar korxona assortimentida deyarlik uchramaydi. Oshxona mebellarining aksariyat qismini “Toshkent” mebel jamlamasи egallaydi.

Shundun xulosa qilish mumkinki, ushbu ikkita mebel ishlab chiqaruvchi korxonalarini ixtisoslashuvi bo'yicha ma'lum farqlanish strategiyalarini qo'llamoqda.



6-jadval: "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJ va "GULOBOD MEBEL" MCHJ tovar assortimentining xususiyatlari

"HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJ	"GULOBOD MEBEL" MCHJ
Daromadi o'rta va past xaridorlarga qaratilgan	Daromadi o'rta va yuqori xaridorlarga qaratilgan
Assortimentda asosan oshxona va yumshoq mebellar joy olgan	Keng ko'lamadagi tovar assortimenti shakllangan
Mebellar standart texnologiya asosida ishlangan va farqlanishi past darajada	Mebellar zamonaviy individual shaklda ishlangan, ktalogdagi barcha turdag'i namunani bajarishi kafolatlanadi
Har qanday mebelning ta'mirlanishi bo'yicha buyurtmalar qabul qilinadi	Mebelni ta'mirlash bilan shug'ullanmaydi (kafolat muddati bundan mustasno)
Butlovchi qismlarni chiqarish imkoniyati va buyurtmalari mavjud	Butlovchi qismlar ishlab chiqarilmaydi
Mebellar jamlamasining alohida predmetlari ham ishlab chiqariladi	Faqat buyurtma bo'yicha jamlamalar yaratiladi
Savdo markasi shakllanmagan.	"MONDELUX" savdo markasi asosida mahsulot chiqaradi

Yuqoridagi tahlildan ko'rinish turibdiki "HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJ va "GULOBOD MEBEL" MCHJ mebellar bozorining alohida segmentlarga ixtisoslashadi va birgalikda bozorni qamrab olishga harakat qiladi

Mebel mahsulotlarini sotib olishda iste'molchilar keng ko'lamdag'i axborotdan foydalanadi, ya'ni: turli axborotlarni tahlil qiladi, xaridning optimal variantini topishga intiladi, mahsulotni o'zining turmush tarzi, didi hamda imkoniyatiga qarab tanlaydi. Shuningdek, iste'molchi uzoq muddatga yaroqli tovarni sotib olishda moliyaviy, texnik, vaqt ni yo'qotish va psixologik tavakkalchiliklarni ham inobatga oladi.

Xaridor uy jihozlarini sotib olish qarorini amalga oshirish uchun bir-biri bilan bog'liq bir necha bosqichdan iborat ehtiyojiga aniqlik kiritgandan keyingina, uni sotib olish va foydalanish amallarini bajaradi. Ya'ni umumiy ehtiyoj quyidagi muammolarni hal etishga qaratiladi:

- qaysi turdag'i mebel uning ehtiyojini to'liq qondirishini aniqlaydi;
- tovari bozordan, firma do'konidan yoki internet orqali sotib oladi;
- tovarning qanday afzalligi bor, sotuvchi qanday kafolat beradi, ushbu tovardan qancha muddat foydalanish mumkin?

Mebel sotib olish uchun axborot vositalari qay darajada ta'sir ko'rsatadi: tahlil shundan dalolat beradiki, uy jihozlarini xarid qilishda 52,5 foiz aholi teleko'rsatuv, 43,1 foizi gazeta va jurnallar reklamalaridan, 49,7 foizi firma do'konlariga tashrif buyurishdan, 50,6 foizi katalog va broshyuralardan foydalanadi.

Mebellarini ishlab chiqaruvchi korxonalar raqobat ustunligiga erishishlari hamda o'z tovarlarini maqsadli bozorda va iste'molchilar ongida raqobatchilar tovaridan aniq farq qiluvchi barqaror o'rinni ta'minlashlari uchun pozitsiyalash jarayonini takomillashtirishlari zarurdir. Mazkur soha korxonalari marketing faoliyatini amalga oshirishda salmoqli sa'y-harakatlarni marketing kompleksini shakllantirishga yo'naltirmoqdalar. Buning natijasida, korxonalar marketing faoliyatini tizimli hamda samarali olib borishda muhim o'rin egallovchi pozitsiyalash jarayonida oqsoqlanish yuzaga kelmoqda. Tovarni pozitsiyalashda mijozlar ongini rivojlantirish, uni zamonaviylashtiriga e'tibor kuchli bo'lishi lozim.

Mebellar ishlab chiqaruvchi korxonalarning pozitsiyalash jarayoning to'g'ri tashkil etmasliklari quyidagi salbiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin:

- Agar ishlab chiqaruvchi tovarning bozordagi pozitsiyasini belgilab bermasa, ushbu holatda iste'molchi bu vazifani o'zi amalga oshirishi mumkin va korxona o'zi kutgan pozitsiyaga ega bo'la olmasligi, hattoki, salbiy imidjning shakllanishiga olib kelishi mumkin;
- Tovarga o'ziga xos, raqobatchilar tovaridan farq qiluvchi xususiyatlari aniq ko'rsatilmagan yoki raqobatchilar pozitsiyasiga yaqin pozitsiyani belgilanishi – iste'molchi tovari sotib olishiga turki bo'lishga emas, balki teskari ta'sir ko'rsatishga xizmat qilishi mumkin;
- Tovarning aniq pozitsiyasi berilmasligi marketing kompleksini shakllantirishga va ketma-ketligini ta'minlashga xalaqt berishi, hattoki, marketing kompleksining har bir elementlarini shakllantirish strategiyalarini bir-biriga qarama-qarshi kelishiga sabab bo'lishi mumkin.
- Pozitsiya aniq tanlangan bo'lsa ham, Ammo chegarasi tor belgilansa, bunday pozitsiyalash korxonaning mayjud tovarlari bozorini kengaytirishga, yangi tovarlarini esa bozorga kiritishga to'sqinlik qiluvchi kuch sifatida ta'sir etishi mumkin. Buning asosiy sababi, soha korxonalarida umumiy marka strategiyasidan foydalanishidir.



Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, mebellarini ishlab chiqaruvchi korxonalar pozitsiyalash jarayonini amalga oshirishda asosiy ikkita yo'nalishga e'tiborlarini qaratishlari lozim:

- Pozitsiyalanayotgan tovarning moslik yoki boshqacha aytganda, turdosh nuqtasini aniqlash. Ya'ni tadiqotlar asosida iste'molchilarни o'z ongida, korxona tovarini qaysi tovar kategoriysi bilan tenglashtirishini, to'g'riroq'i, qaysi kategoriyaga kiritishini aniqlashni nazarda tutiladi. Bu esa o'z navbatida, tovar kategoriyasining o'ziga xos xususiyatini ochish asosida, uning to'g'ridan-to'g'ri raqobatchilarini aniqlash imkoniyatini beradi.
- Pozitsiyalanayotgan tovarning differensiatsiya nuqtasini aniqlash. Bunda tovarning raqobatchilar tovaridan aniq farq qiluvchi bir yoki bir nechta o'ziga xos xususiyatlarni aniqlash asosida uning raqobat ustunligini ko'rsatib berishdan iboratdir.
- Mebellar ishlab chiqaruvchi korxonalarini ta'kidlab o'tilgan yo'nalishlari bo'yicha pozitsiyalashni amalga oshirishdan oldin tarmoqning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishlari lozim:
- Tovar ishlab chiqarish jarayonining murakkabligi va texnologiyaning ta'sirining yuqoriligi. Zamonaviy mebellarini ishlab chiqarish murakkab texnologiyalarni talab etadi, pirovardida, tovar bozor narxining ko'tarilib ketishiga olib keladi.
- Mebellarining yangi turi va modelini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish davrining uzoqligi. Yirik mebel ishlab chiqaruvchi korxonalarining mebelning yangi modelini ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish davrining o'rtaча muddati 7-15 oyni tashkil etadi.
- Tovar sifatiga qo'yiladigan talabning yuqoriligi. Mebellar oldindan tanlovnı talab etuvchi tovarlar turiga kirganligi sababli, iste'molchilar mahsulotdan uzoq muddatli xizmat ko'rsatishini kutadilar. Soha ishlab chiqaruvchilari mahsulotlarining sifatini yuqori darajada ushlab turish uchun, uning funksional xususiyatini saqlab qolgan holda, yuqori sifatlari furniturelardan ishlab chiqarishda foydalananilar. Shu sababli, ko'pgina korxonalar o'z mahsulotlarini pozitsiyalashda "sifat", "mustahkam" so'zlarini qo'llaydilar.

Kafolat berish asosida xizmat ko'rsatish. Odatda kafolat berish asosida xizmat ko'rsatishga va kafolatdan keyingi xizmatga sarflanadigan xarajatlar yuqori bo'lmaydi, lekin, ayrim hollarda mahsulot tannarxining 20-25 foizini ham tashkil etishi mumkin. Shuningdek, sotuvdan keyin mebelni yig'ib berish xizmati mahsulot tannarxining 10 foizigacha teng ham bo'lishi mumkin.

Tovarni tanlov va xarid jarayoniga iste'molchi nisbatan ko'p vaqt sarflashi. Marketing tadqiqotlari shuni ko'rsatadi, iste'mol tovarlari bozorida iste'molchi mebelni tanlash va xarid qilishga 4 haftagacha vaqt sarflashi mumkin.

Yuqoridagi muammolar va mebel ishlab chiqarishidagi marketing faoliyati xususiyatlari korxonalar uchun alohida marketing xizmati uchun strategik va taktik dasturini ishlab chiqish zaruratini oldinga suradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev top onidan ishlab chiqilgan "2017–2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi"da iqtisodiyotni jadallashtirish yo'li sifatida "... prinsipial jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o'zlashtirish, shu asosda ichki va tashqi bozorlarda milliy tovarlarning raqobatbardoshligini ta'minlash; ishlab chiqarishni mahalliyashtirishni rag'batlantirish siyosatini davom ettirish hamda, eng avvalo, iste'mol tovarlar va butlovchi buyumlar importining o'rnini bosish, tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini kengaytirish" kabi vazifalar belgilab berilgan.Ushbu vazifalar Yangi O'zbekistonni rivojltirishga qaratilga "Yetti yo'nalish - 100 ta maqsad" Strategiya-sida yanada kuchaytirilgan.

Ushbu vazifalar mahalliy korxonalar oldiga zamонави bozor munosbatlari sharoitida marketing tamoyillarini qo'llash, xalqaro raqobatbardoshlikni shakllantirilishini talab qiladi. Bunda avvalo, bozor vositalardan bo'lmish marketing tadqiqotlari shakllari va usullarini puxta o'rganish taqozo etiladi. Shu munosabat bilan bizlar bitiruv malakaviy ishda sanost korxonalarida marketing xizmatlarining nazariy va amlaiy jihatlarni o'rganib quyidagi asosiy xulosalarga keldik.

Marketing xizmatlari zamонави marketing faoliyatining asosiy bo'g'inlaridan hisoblanadi va marketing nazariyasida eng katta o'rnlardan birini egallaydi. Marketing falsafasida korxonalar uchun marketing xizmatlarining taskhili jihatlari ishlab chiqarish qarorlari uchun asos bo'ladi.

Marketing xizmatlari ko'zlangan maqsadlar, bozor subyektlari, tovar turi, bozor holati, va boshqa ko'plab omillar ta'siri ostida turli shakllarda va ko'rinishlarda olib boriladi. Shu bilan birgalikda marketing xizmatlarini bir xil tamoyillar birlashtiradi.

"HAVAS COMFORT MEBEL" MCHJ si Samarqand viloyati Samarqand tumanida joylashgan bo'lib asosan har xil turdag'i mebel jihozlarini ishlab chiqarishga moslashgan. Korxona ichki bozorga mebel ishlab chiqarib bugungi kunda 50 turga yaqin assortimentga ega. Korxonada 52 kishi ish bilan ta'minlangan.



Marketing faoliyati asosan mijozlar bilan ishlash bo'yicha mutaxassislar tomonidan amalga oshiriladi. Korxonada sotuv bo'limi ishlab chiqarilgan mahsulotlarni dilerlar va do'konlar orqali realizatsiya qiladi.

"HAVAS COMFORT MEBEL" MChJ si marketing faoliyatida ikkita yo'lni tanlaydi:

- buyurtmachining istaklarini aniqlash va buyurtma bajarilishi davrida ularning qay darajada amalga oshirilshini o'rganish. Ushbu usul asosan individual buyurtmalar, ya'ni xonalarga mos ravishda tanlanadigan mebeller uchun qo'llaniladi va buning natijasida ommaviy katalog mebellarga ham kengaytiriladi;
- Korxonada mavjud namunalar va kataloglar asosida potensial iste'molchilarning ehtiyojlarini qondirish.

Olib borilgan izlanishlar natijasida bizlar korxonada marketing tadqiqotlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflarni ishlab chiqdik:

- Marketing xizmatlari shakllari va qamrovini kengaytirish, ya'ni bozor munosabatlarda keng qo'llaniladigan funksional, mahsulot va matriksali tuzilmalari va boshqalarni qo'llash;
- Marketing xizmatlari tizimida marketing autsorsingi tizimini joriy qilish, ya'ni marketing xizmatlarini tashqi tashkilotlar yordamida amalga oshirish;
- Marketing xizmatini raqamlashtirish texnologiyasi asosida tashkil qvlish va rivojlantirish;
- Marketing xizmatlarida benchmarking axborotlardan keng foydalanish, boshqalarning tajriba-sinov natijalarini o'rganish.

Ushbu takliflarning samarasi nafaqat sotish hajmida, balki korxonaning nufuzida ham namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA,2012-y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Osnovy marketinga, 5-e evropeyskoe izd. Uchebnik. – M.: OOO "I.D.Vi-lyams, 2013. – 752 s.
4. Soliyev A., Vuzrukxonov S., Marketing, bozorshunoslik. Darslik. – T.: Iqtisod-Moliya, 2010. – 424 b.
5. Ergashxodjayeva SH.J., Qosimova M.S., Yusupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
6. Musayeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarcand-2023
7. Musayeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O'quv qo'llanma "Mahorat" nashriyoti, Samarcand – 2022
8. Musayeva Sh.A., Usmonova D.I. Innovatsion marketing "TURON EDITION" 2021 yil uchun o'quv qo'llanma.

Yashi

IQTISODIYOT
va
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 11-12

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnalni

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.

